

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT


2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274- son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yishi va rivojlantirishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)




	Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	37 767	120,4 %
	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	35 599	119,5 %
	Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020-yilda)	4 952	89,4 %

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zлari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- avgust holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyat:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamanagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lamanagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-iyul oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyul oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020- yil yanvar- iyul oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020- yilning yanvar-iyul oylarida 4 952 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 2 668 ta, xususiy korxonalar – 565 ta, oilaviy korxonalar – 1 465 ta va boshqalar – 254 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 6 000 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 105 taga yoki 54,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 658 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 939 taga yoki 52,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 465 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99 taga yoki 7,2 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra 564 tani tashkil etib, ularidan 546 tasi yoki 96,8 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 69 taga yoki 14,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 45 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyul oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2020-yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)**

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Samarqand viloyati	546	380	166
Samarqand sh.	237	149	88
Kattaqo'rg'on sh.	17	14	3
tumanlar:			
Oqdaryo	26	23	3
Bulung'ur	25	11	14
Jomboy	39	33	6
Ishtixon	13	7	6
Kattaqo'rg'on	12	10	2
Qo'shrabot	15	6	9
Narpay	4	3	1
Payariq	16	9	7
Pastdarg'om	28	22	6
Paxtachi	9	5	4
Samarqand	37	29	8
Nurobod	10	10	0
Urgut	44	39	5
Tayloq	14	10	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida 237 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 43,4 %), Urgut 44 ta (8,1 %), Jomboy 39 tani (7,1 %), Samarqand 37 ta (6,8 %), Pastdarg'om 28 ta (5,1 %) hamda Bulung'ur tumanlarida 25 ta (4,6 %) tashkil etadi.


Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahri (29,1 %), Urgut (8,6 %), Pastdarg'om (8,4 %), Samarqand (7,3 %), Payariq va Ishtixon (5,4 %), Kattaqo'rg'on (5,2 %), Tayloq (4,1 %), Bulung'ur (4,0 %), Oqdaryo (3,9 %), Kattaqo'rg'on shahri (3,5 %), Narpay (3,4 %), Nurobod (2,9 %), Paxtachi va Qo'shrabot (2,5 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahrida (21,7 %), Samarqand (8,2 %), Pastdarg'om (8,1 %), Kattaqo'rg'on hamda Urgut (7,8 %), Ishtixon (6,1 %), Bulung'ur (5,0 %), Jomboy hamda Payariq (4,7 %), Oqdaryo (4,1 %), Tayloq (4,0 %), Kattaqo'rg'on shahri (3,9 %), Qo'shrabot hamda Narpay (3,7 %), Nurobod (3,6 %), va Paxtachi (2,9 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2020- yilning yanvar-iyul oylarida, birlikda)




2020- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Samarqand shahar (16,6 %), Samarqand (14,5 %), Pastdarg'om (10,6 %), Kattaqo'rg'on (8,9 %), Urgut (8,4 %), Payariq (7,1 %), Jomboy (6,3 %), Tayloq (5,3 %), Ishtixon (4,7 %), Oqdaryo (4,6 %), Narpay (4,5 %), Bulung'ur (4,0 %), Kattaqo'rg'on shahar (2,1 %), Qo'shrabot hamda Paxtachi (0,9 %) va Nurobod (0,6 %) tumanlari ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-iyul oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnama tusidagi, vaqtı-vaqtı bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda Davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the official website of the State Statistical Committee of Uzbekistan. The main header reads "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a section titled "RASMIY STATISTIKA" with links to various statistical publications. The central part of the page features a search form for "Statistik klassifikatsiyalar" (Statistical classification codes), with fields for "STIR kodini kiriting" (Enter STIR code) and "Rasmdag'i kodni kiriting" (Enter registration code). The right sidebar contains a list of "FOYDALI MA'LUMOTLAR" (Useful Information) including links to "Aholini ro'yxatga olish-2022" and "Harakatlar strategiyasi".

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsnинг (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul oishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi**
Tel.:66 230-45-42